

## MAKTAB TA'LIM TIZIMIDA CHIZMACHILIK FANINI RIVOJLANTIRISH

Toxirov Islomjon Hakimjon o‘g‘li  
FarPI, ChG va MG kafedrasi assistenti

### ANNOTATSIYA

Maktablarda chizmachilik o‘qituvchilari malakasini oshirish, taqvim ish rejasi asosida dars jarayonlarni yaxshi tashkil etish. O‘quv sifatni oshirish.

O‘zbekiston rivojlantirish kontseptsiyasida O‘zbekiston Respublikasining 2035yilgacha Respublikasi xalq ta’limi tizimida chizmachilik fanini rivojlanish stradegiyasining kontseptsiyasi,O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712 sonli hamda 2019 yil 6 sentyabrdagi “Profesional ta’lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo‘srimcha chora - tadbirlar to‘g‘risidagi PF-5812 sonli va 2019 yil 8 oktyabrdagi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to‘g‘risidagi Pf-5847 sonli farmonlari.2025 yilgacha O‘zbekiston sanoatining rivojlantirish kontseptsiyasiga ko‘ra maktab muassasalarida chizmachilik fanini takomillashtirishga e’tibor berish kerak. Bu ishlarni amalga oshirish uchun pedagogik texnologiya-pedagogik maqsadlarga erishishda foydalaniladi. Chizmachilik fanini o‘qitishda zamonaviy yondashuv va imkoniyatlar (ilg‘or xorijiy tajribalar) modulining taqvim ish rejasi dasturi ishlab chiqish kerakligi bizga ma’lum.

Chizmachilik o‘qituvchilari malakasini oshirish kursining taqvim ish rejasi asosida tuzilib,zamonaviy yondashuvlarga e’tibor berish kerak. Shuningdek maktablarda chizmachilk fanini o‘quvchilarga o‘rgatishda katta e’tibor berish kerak. Maktabdagi chizmachilik darslarini o‘tuvchi pedagoglarini pedagogik mahoratini rivojlantirish kerak.

Chizmachilik va tasviriy sanat fanini o‘qitish jarayonida o‘quvchilar fanni mukammal o‘zlashtirishlari boshqa fanlarga nisbatan qiyinroq bo‘ladi. Bunga sabab, o‘quvchilar fanni mukammal bilishlari uchun birinchi navbatda fazoviy tasavvur hamda amaliy bilimlarga ega bo‘lishlari kerak bo‘ladi. Shuni e’tiborga olgan holda o‘quvchilar fanni o‘zlashtirishda turli xil didaktik jarayonlar, metodlar hamda pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda dars mashg‘ulotlarini tashkil etish bu zamonaviy pedagogning eng asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Lekin shunday bo‘lsada, o‘quvchilarning bilim olishlari hamda fanlardan baholanishda faqatgina

pedagog dars mashg‘ulotlarini mukammal tashkil etish bilan cheklanib qolmaydi, ya’ni o‘quvchilarning ham fanga bo‘lgan qiziqishlari hamda o‘zlashtirishlariga ham bog‘liq subyektiv omil bo‘lib hisoblanadi.

Texnik oliygohlarga o‘qishga kelayotgan talabalar chizmachilik fanini boshlang‘ich bilimini maktabdan mukammal bilimga ega bo‘lib kelishlari kerak. Bu fanga umumta’lim maktablarida zamonaviy yondashuvlarga e’tibor berishimiz kerak. Hozirgi vaqtida chizmachilik ta’limining amaldagi joriy holati to‘plangan tajribalar taxminidan quyidagilar ma’lum .Chizmachilik fani o‘quvchilarga xotira , diqqat, tasavvur faoliyatlarini shakllantirishga va yo‘naltirilgan.

Bugungi kunda maktabgacha umumiyl o‘rta ta’lim maktab tizimida ta’lim olayotgan o‘quvchilar yuqori darajada ta’lim olish ,fan sohasida yetarli bilim ko‘nikma va malakalarini shakllantirish dolzarb masalaga aylanib bormoqda. Sanoatning bevosa rivojlanishda chizmachilik fanda egallaniladigan grafik bilimlar (eskiz bajarish ) xar xil turdagil chizmalarni o‘qish o‘z o‘rniga ega ekanligi namoyon bo‘lmoqda, bu esa iqtisodiyotning barcha soxalarini rivojlanishda chizmachilik fanini salmog‘ini kuchaytiradi.

Bizga ma’lumki tasviriy san’at va chizmachilik fani insonlarni tasavvur etish, buyumlarni tuzulishini,ichki ko‘rinishini chizishlarni o‘rgatadi.

Texnik oliygohlarga o‘qishga kelayotgan talabalar chizmachilik fanini boshlang‘ich bilimini maktabdan mukammal bilimga ega bo‘lib kelishlari kerak.Lekin ba’zi bir maktablarda mutaxassis yetishmagani sababli, chizmachilikka yaqin fan o‘qituvchilari dars berib kelmoqda.

Maktab ta’lim tizimida davlat tomonidan berilgan barcha fanlarni maktab o‘quvchilari o‘zlashtirishlari majburdir. Ammo chizmachilik fanini barcha maktab o‘quvchilari ikkinchi darajali bo‘lib qolgani aniq ko‘rinib turibdi.Bu fanni umum ta’lim maktablarida o‘qitilishidagumanitar va politexnik yo‘nalishlarga amalgalashirishimiz va umumiyl o‘rta ta’lim maktablardagi chizmachilik fanini o‘qitish jarayonini raqamli texnologiyalar, zamonaviy yondashuvlarni joriy etish kerak.

Hozirgi vaqtida umumiyl o‘rta ta’lim maktablarida chizmachilik fanini o‘qitishning amaldagi holati taxlil qilinganda quyidagilar ma’lum bo‘ldi.

Malakali mutaxassis bo‘lib shakllanishda faqat o‘z sohasining bilimdoni va shu yo‘nalishdagi axborotlarni egallanishi bilan bir qatorda ulardan xar xil kasbiy vaziyatlar yuzaga kelganda o‘rinli foydalana bilish ham talab kilinadi.

Umumiyl o‘rta ta’lim maktablarida chizmachilik fanini o‘qitish sifatini oshirish uchun,birinchi o‘rinda namunaviy dastur ,zamonaviy metodik ta’minot kompleksni yaratish,grafik ta’lim samaradorligining yuqori bo‘lishini ta’minlaydi.

-Chizmachilik darslarini tashkil qilishda kompyuter texnologiyalarining imkoniyatidan keng foydalanish zarur.

-O‘quvchilarni politexnik bilimini rivojlantirishga yo‘naltirish;  
-O‘quvchilarning fazoviy tassavurini rivojlantirishga ko‘maklashuvchi “Chizmachilik elektron” darslik yaratish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Ta’lim berish va bilim bo‘shliqlarini to‘ldirishda chizmachilik o‘qituvchisi fan dasturidagi mavzularni yangi ped texnologiya va kreativ izlanishlarga ega bo‘lishiga e’tibor berishimiz kerak.Buning uchun pedagoglar qayta malaka oshirish ta’limida o‘qishilari kerak.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)**

1. Toxirov I.X., & Srojidinov J.R. (2022). CHIZMA GEOMETRIYA VA MUHANDISLIK GRAFIKASI DARSLARIDA TALABALARINI TEST TOPSHIRIQLARINI TAYYORLASH VA TEST SINOVLARINI O‘TKAZISH TALABLARI. Экономика и социум, (4-3 (95)), 747-750.
2. Toxirov I.X., & Toshqo‘Ziyeva Z.E. (2022). CHIZMA GEOMETRIYA VA MUHANDISLIK GRAFIKASI DARS MASHG‘ULOTLARIDA TEST SINOVLARINI O‘TKAZISH TALABLARI. Экономика и социум, (4-2 (95)), 481-486.
3. Kholmurzaev, A. A., & Tokhirov, I. K. (2022). Involvement of Students in the Performance of Test Tasks and Conducting Control Work in the Lessons of Descriptive Geometry and Engineering Graphics. Journal of Architectural Design, 6, 5-8.
4. Jaxongir o‘g‘li, R. K., Toshmatovna, A. D., Muxtoraliyevna, R. M., & Xakimjon o‘g‘li, T. I. (2021). PROGRESSIVE CONSTRUCTIONS OF ADJUSTABLE SHEET PUNCHING STAMPS. EURASIAN JOURNAL OF SOCIAL SCIENCES. PHILOSOPHY AND CULTURE, 1(2), 46-53.
5. Tokhirov, Islombok Khakimjon Ugli (2021). SELECTION OF THE MANUFACTURING PROCESS OF THE PART. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1 (10), 698-704.
6. Сайдулло Собирович Арзиев, & Исломжон Хакимжон Ўғли Тохиров (2021). ФАЗОВИЙ ФИКРЛАШНИНГ БЎЛАЖАК МУҲАНДИС ВА АРХИТЕКТОРЛАР ИЖОДИЙ ФАОЛИЯТИДА ТУТГАН ЎРНИ. Scientific progress, 2 (2), 438-442.